

**O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING
IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Mirzaliyev Saxiybek Muxamadali o'g'li

Annotatsiya: *Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish ma'murchiligi o'rgangan holda ularni soliq solishni tartibga solish, qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish bilan ham bog'liqdir. Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan, soliq bazasining shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalarga asosanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, byudjet siyosati, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.*

Kirish: Mamlakatimizning ishlab chiqarish bozorini raqobatbardoshligini oshirish, milliy valyutamizni muntazam ravishda mustahkamlab borish, islohotlarni keng joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlari soliq yukini kamaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va sarmoyadorlarga keng yo'l ochib berish, biznes vakillariga imkoniyatlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar ishlab chiqish, asosiy strategik harakatlarimizning bosh omili sifatida belgilangan.

Soliqqa tortish har qanday davlatning moliyaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, daromadlarni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatimizda o'sib borayotgan iqtisodiyot sifatida soliq

to'lovchilarga xizmat ko'rsatish hamda QQS ma'muriyatchiligi sohasida o'ziga xos chora-tadbirlar va amaliyotlarni qabul qildi. Mamlakatimizda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish tartibi va QQS ma'muriyatchiligining o'ziga xos jihatlari haqida umumiy ma'lumot berib, mamlakatda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay muhit yaratish muhimdir. Bundan tashqari, Mamlakatimizning soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va QQS ma'muriyatchiligiga bo'lgan yondashuvi raqamlashtirish va xalqaro savdodagi global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu esa Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari va oqibatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Mamlakatimiz soliq tizimining samaradorligi soliqqa tortishning belgilangan talablari, mezonlari va tamoyillariga rioya etilishi bilan ta'minlanadi. Ko'p sonli faoliyat ko'rsatuvchi soliq tizimlarini qurish Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723—1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) beshta muhim tamoyil shaklida shakllantirilgan g'oyalariga asoslanadi. Ushbu tamoyillarni davlatimiz soliqlar va yig'imlariga nisbatan ko'rib chiqamiz.

1. Aniqlik tamoyili. Har bir soliq yoki yig'im davlatning muhim qonunlari bilan belgilanishi va barcha zarur elementlarga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Bular soliq to'lovchi, soliq solish ob'ekti, soliq bazasi, davr va stavka, soliqni hisoblash tartibi va uni to'lash muddatlari. Soliq qonunchiligining barcha noaniqliklari to'lovchining foydasiga talqin etiladi.

2. Adolat tamoyili. Soliqqa tortishning universalligini nazarda tutadi. Har bir yuridik yoki jismoniy shaxs, agar u buning uchun to'lovchi sifatida tan olingan bo'lsa, soliq to'lashi shart. Soliq to'lovchi davlat budjetini to'ldirishda va uning xarajatlarini moliyalashtirishda ishtirok etishi shart.

3. Qulaylik tamoyili. Har bir soliq to'lovchining davlat qonunlarida belgilangan muddatlarda va tartibda to'lashi shart bo'lgan soliqlar va yig'imlar haqida bilishini nazarda tutadi. Bu tamoyil, birinchi navbatda to'lovchining soliq majburiyatlarini bajarishga, shuningdek, soliq organlari tomonidan o'z vakolatlarini

suiiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan.

4. Iqtisodiyot tamoyili - davlat soliq to'lovchilardan soliq va yig'implarni undirishda xarajatlarni kamaytirishga intilishi. Bu erda mashhur ibora qo'llaniladi: "Iqtisodiyot tejamkor bo'lishi kerak"

5. Mavqeyi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, barcha soliq to'lovchilar davlat soliq qonunchiligiga muvofiq bir xil soliq yukini o'z zimmlariga olishlarini nazarda tutadigan tenglik tamoyili. Soliq munosabatlarining har bir ishtirokchisi (to'lovchilar va davlat) o'z manfaatlarini sudda himoya qilish huquqiga ega.

Soliq ma'murchiligini isloh qilish yuqorida keltirib o'tilgan prinsiplarga tayanish barobarida ishlab chiqiladi. Avvalo soliq turlariga to'xtalib o'tsak, qo'shilgan qiymat solig'i (*keyingi o'rinlarda QQS*) haqida albatta so'z yuritiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatimizda 1992-yildan beri joriy qilingan bo'lib, ushbu soliq stavkasi yildan yilga pasaytirilib kelinmoqda. QQS xorijiy davlatlar amaliyotida birinchi marta 1954-yilda fransuz iqtisodchisi Morris Lore tomonidan taklif qilingan bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tgan ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shveysariya)da 60-yillarning oxirida, (Belgiya, Buyuk britaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i ko'plab davlatlarda iste'mol solig'i yoki tijorat solig'i nomi bilan, bir xil alternativda qo'llaniladi. Qo'shilgan qiymat solig'i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992-yildan boshlab QQS joriy etilgan. Xorijiy mamlakatlarda QQS davlat byudjetidagi soliq tushumlarining 12 foizdan 30 foizgacha bo'lgan daromad qismini qoplaydi, ya'ni yalpi milliy mahsulotning o'rtacha 5-10 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda 1992-yildan beri qo'llanilib kelinayotgan QQS (aksiz solig'i bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va ishlab chiqarish (shu jumladan import) olinadigan soliqlarning o'rnini to'liq almashtirdi". O'zbekiston Respublikasida

1991-yil oxirida hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan soliq tizimining asoslari belgilab qo'yilgan. Bu vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasining korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risidagi Qonuni² bilan 1991-yil fevral oyidan kuchga kirgan soliqlarning o'ziga xos turlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Undan tashqari, Soliq kodeksining Majburiylik prinsipi deb nomlangan 8-moddasida esa, "Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas"³ deb ko'rsatilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 15.02.1991 yildagi 227-XII-son

² Shu manba

³ O'zbekiston Respublikasining yangi tahriddagi Soliq kodeksi. 8-moddasi.lex.uz.

to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-sonli qarorlarini e'tirof etishimiz mumkin. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq islohotlari 5 ta yo'nalishni tashkil etib, ular quyidagilar:

Soliq islohotining birinchi yo'nalishi - iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish.

Agar umuman respublika bo'yicha qarasak, 2024-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 381,0 trln.so'm xarajatlar 429,0 trln.so'm (2023-yil budjet daromadlari 322 trln. so'm xarajatlar 381 trln. so'm) ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yil uchun tasdiqlangan prognoz esa budjet daromadlari 476,0 trln. so'm miqdorida, xarajatlari esa 529 trln.so'm miqdorida rejalashtirilgan holda konsolidatsiyalashgan budjet 53 trln.so'm yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdoridagi taqchillik bilan shakllantirildi. Davlat budjeti daromadlarining YaIMga nisbati 2023-yilda 26,7 foiz, 2024-yilda 26,2 foiz va 2025-yil kutilma 27,8 foiz miqdoriga to'g'ri kelmoqda. Garchi korxonalar va aholi uchun soliqlar kamaytirilsada, ularning YaIMdagi umumiy ulushi ortib bormoqda.

Soliq islohotining ikkinchi yo'nalishi - soliqlarni birxillashtirish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish.

Soliqlarni kamaytirish va unifikatsiya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan:

- infratuzilmani rivojlantirish solig'i, davlat jamg'armalariga ajratmalar, qo'shimcha foyda solig'i qisqartirildi;
- neft mahsulotlarini ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yagona yer solig'i
- boshqa soliqlar bilan birlashtirildi;
- yig'imlardan - avtotransport vositalarini sotib olinganligi va (yoki) O'zbekiston hududiga vaqtincha olib kirilganligi uchun yig'im chiqarib tashlandi.

Soliq islohotining uchinchi yo‘nalishi - makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash.

Soliq islohotining to‘rtinchi yo‘nalishi:

- soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havoalaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda Soliq kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash.

Yirik va o‘rta biznes uchun soliq qonunchiligini ma’lum darajada soddalashtirish amalga oshirildi, bu haqda yuqorida aytib o‘tilgan. Biroq, soliqqa oid qonunchilik kichik biznes sub’ektlari, ayniqsa, aylanmasi 1 mlrd.so‘mdan oshgan kichik biznes sub’ektlari uchun murakkablashdi. Ushbu korxonalar ilgari hisoblab chiqarish ancha oson bo‘lgan uchta soliqni to‘lashgan. 2019-yildan boshlab ular QQS va foyda solig‘i kabi hisoblab chiqarish murakkab bo‘lgan soliqlarni to‘lashni boshlashdi.

Xulosa va takliflar.

Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida tovarlarni bozor narxini aniqlashning inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizimini amaliyotga joriy etish;

Soliq to‘lovchilar tomonidan rasmiylashtiriladigan hisobvara-q-fakturalarni soliq xavfining darajalariga avtomatik ajratish, bunda, yuqori xavf darajasiga kiritilgan hisobvara-q-fakturalar asosida tovarlar (xizmatlar) xaridini amalga oshirgan xaridorlar tomonidan mazkur hisobvara-q-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi hisobga olish huquqini cheklashga doir ishlarni takomillashtirish;

Soliq to‘lovchining vakolatli davlat organlariga yuridik va jismoniy

shaxslardan undirilgan jarimalar taqsimoti ko'rinishida mablag'larni olishga doir faoliyatiga soliq hisoblash amaliyotini joriy etish;

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilish aylanmasiga nisbatan nol darajali stavkada qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash, bunda salbiy farq summasini tezlashtirilgan tartibda qoplashni joriy etish soliqlarning adolatlilik tamoyilining ta'minlanishi hamda soliqdan asossiz qochish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020-yil 14-avgust qarori
Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599 Qonuni bilan qabul qilingan. 365-bet.